KOKAND UNIVERSITY HERALD SCIENTIFIC E-JOURNAL
ISSN: 2181-1695

QO‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI
KOKAND UNIVERSITY HERALD
ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО УНИВЕРСИТЕТА

OAK: 01-08/1819/6

www.herald.kokanduni.uz

MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLALARDA EXINOKOKKOZ PROFILAKTIKASINING GIGIYENIK JIHATLARI

Jo‘rayev Botirbek Xurmatjon o‘g‘li,
Qo‘qon universiteti Andijon filiali o‘qituvchisi.
botirbekjorayev0@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.54613/ntxx4n57

MAQOLA HAQIDA/ О СТАТЬЕ

Qabul qilindi: 2-oktabr 2026-yil
Tasdiqlandi: 5-oktabr 2026-yil
Jurnal soni: 19-B
Maqola raqami: 46

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

exinokokkoz, maktabgacha yoshdagi bolalar, parazitar kasalliklar, gigiyenik profilaktika, shaxsiy gigiyena, sanitariya-ma’rifiy tarbiya, yuqish yo‘llari, uy hayvonlari, epidemiologik xavf omillari

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda exinokokkoz kasalligining oldini olishga qaratilgan sanitariya-gigiyenik tadbirlar va profilaktik yondashuvlar tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida 200 nafar maktabgacha yoshdagi bolaga mo‘ljallangan so‘rovnoma savollari asosida exinokokkoz kasalligi haqidagi xabardorlik, uning yuqish yo‘llari, uy hayvonlari bilan muloqot qilish, shaxsiy gigiyena va oziq-ovqat mahsulotlarini to‘g‘ri yuvish bo‘yicha bilimlarni baholash masalalari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, kasallikning tarqalishida itlarning epidemiologik ahamiyati, parazit tuxumlari bilan ifloslangan tashqi muhit omillari va gigiyenik ko‘nikmalarni shakllantirishning ahamiyati yoritilgan. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning yosh xususiyatlariga mos sanitariya-ma’rifiy mashg‘ulotlar, didaktik o‘yinlar va ko‘rgazmali materiallardan foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot yo‘nalishlari exinokokkoz profilaktikasida bolalar, tarbiyachilar va ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarurligini asoslaydi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 2 October 2026
Approved: 5 October 2026
Volume: 19-B
Paper number: 46

KEYWORDS

echinococcosis, preschool-aged children, parasitic diseases, hygienic prevention, personal hygiene, health education, routes of transmission, domestic animals, epidemiological risk factors

ANNOTATION

This article analyzes sanitary and hygienic measures and preventive approaches aimed at preventing echinococcosis among preschool-aged children. Within the framework of the study, a questionnaire designed for 200 preschool-aged children was used to examine their awareness of echinococcosis, its routes of transmission, interactions with domestic animals, personal hygiene, and knowledge of proper food washing practices. The article also highlights the epidemiological significance of dogs in the spread of the disease, environmental factors associated with contamination by parasite eggs, and the importance of developing hygienic habits. Practical recommendations have been developed for the use of age-appropriate health education sessions, didactic games, and visual teaching materials in preschool educational institutions. The research findings emphasize the need to strengthen cooperation among children, preschool educators, and parents in preventing echinococcosis.

Kirish

Bugungi kunda parazitar kasalliklarning oldini olish va ularga qarshi samarali kurashish jahon sog‘liqni saqlash tizimining muhim vazifalaridan biriga aylanmoqda. Davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning jadallashuvi hamda aholining xalqaro migratsiya jarayonlarida faol ishtirok etishi parazitar infeksiyalar tarqalishining ortishiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Gelmintozlarning geografik tarqalishi tabiiy-iqlim xususiyatlari va aholining ijtimoiy-iqtisodiy yashash sharoitlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, mazkur kasalliklar, ayniqsa, tropik va subtropik iqlim hududlarida joylashgan mamlakatlarda ko‘proq uchraydi. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlarda esa gelmintozlar bilan kasallanish ko‘rsatkichlari nisbatan past darajada qayd etiladi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti mutaxassislarining ta’kidlashicha, gelmintozlar bugungi kunda yetarlicha e’tibor qaratilmayotgan, ya’ni “unutilgan kasalliklar” qatoriga kiruvchi muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu kasalliklarning aholi salomatligi va jamiyat hayotiga ko‘rsatadigan tibbiy-ijtimoiy ta’siri global miqyosda yetarli darajada baholanmayapti. E’tiborlisi shundaki, gelmintozlar doimiy uchraydigan endemik hududlarda ham sog‘liqni saqlash muassasalari va aholining mazkur muammoga munosabati hamda profilaktikaga qaratayotgan e’tibori yetarli darajada emas [8, 120 b].

Exinokokkoz — *Echinococcus granulosus* va *Echinococcus multilocularis* turiga mansub tasmasimon gelmintlar qo‘zg‘atadigan zoonoz parazitar kasallik hisoblanadi. Ushbu kasallik rivojlanishi davomida inson organizmida parazitlar ta’sirida gidatik kistalar shakllanib, ular ko‘pincha jigar va o‘pkani, ayrim hollarda esa boshqa ichki a’zolarni zararlaydi. Exinokokkozning keng tarqalishiga epidemiologik nazorat tizimining yetarli darajada samarali tashkil etilmaganligi sabab bo‘lib, bunday holat, ayniqsa, qishloq joylarda va chorvachilik rivojlangan hududlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Jahon miqyosida exinokokkoz Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan alohida e’tibor qaratiladigan xavfli parazitar kasalliklardan biri sifatida e’tirof etiladi. Ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, har yili dunyo bo‘ylab bir necha million inson ushbu kasallikni yuqtirish xavfi ostida bo‘ladi. Ayniqsa, veterinariya xizmati va sanitariya-epidemiologik nazorat yetarlicha yo‘lga qo‘yilmagan hududlarda kasallikning tarqalish xavfi yuqoriligicha qolmoqda. Budke va hammualliflar (2017) tomonidan keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, exinokokkoz oqibatida jahon iqtisodiyotiga har yili qariyb 1 milliard AQSH dollari miqdorida iqtisodiy zarar yetkaziladi [5, 752-b.].

Adabiyotlar tahlili

O‘zbekiston olimlari Abdiyev T.A., Suvonqulov U.T., Salimov B.S., Vahobov T.A. va Arziyev X.Yu. (2016) tomonidan olib borilgan ilmiy ishda exinokokkoz profilaktikasining tashkiliy va gigiyenik asoslari keng yoritilgan. Mualliflar O‘zbekiston exinokokkoz bo‘yicha endemik hududlardan

biri ekanligini ta’kidlab, kasallikka qarshi kurashda faqat tibbiyot muassasalari faoliyati bilan cheklanib qolish yetarli emasligini asoslaganlar. Ularning fikricha, tibbiyot, veterinariya, sanitariya-epidemiologiya va kommunal xizmatlarning o‘zaro muvofiqlashtirilgan hamkorligi kasallikning yuqish zanjirini uzishda muhim hisoblanadi. Tadqiqotda itlarni veterinariya ro‘yxatiga olish, muntazam degelmintizatsiya qilish, hayvonlarni so‘yish jarayonida sanitariya talablariga rioya etish hamda aholi orasida tushuntirish ishlarini olib borish ustuvor profilaktik yo‘nalishlar sifatida qayd etilgan. Ayniqsa, 14 yoshgacha bo‘lgan bolalar kasallik profilaktikasida alohida e’tibor talab qiluvchi guruhlardan biri sifatida ko‘rsatilgan[1, 198-202 b.].

Rossiya Federatsiyasi Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish va inson farovonligini nazorat qilish federal xizmati ma’lumotlariga ko‘ra, Rossiya Federatsiyasida (RF) exinokokkoz bo‘yicha epidemiologik vaziyat murakkabligicha qolmoqda. Mamlakatda har yili 500 dan ortiq exinokokkoz holati qayd etiladi. 25 yillik davr mobaynida kasallanish ko‘rsatkichi 3 baravarga oshgan, ya’ni 1991-yildagi har 100 ming aholiga 0,1 holatdan 2015-yilda 0,3 holatgacha yetgan [6, 16-27 b.].

Uzoq Sharq federal okrugida (UShFO) exinokokkoz muammosi dolzarbligicha qolmoqda. «Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risida»gi davlat hisobotlari ma’lumotlariga ko‘ra, 2012–2016-yillarda UShFO tarkibidagi 9 ta subyektdan 7 tasida kasallanish holatlari qayd etilgan.

Ushbu hududlarning aksariyatida kasallanish sporadik, ya’ni alohida-alohida uchraydigan holatlar ko‘rinishida kuzatilgan.

Yahudiy avtonom viloyati (YAV) va Kamchatka o‘lkasida besh yillik davr davomida exinokokkozning birorta ham holati qayd etilmagan.

Amur va Saxalin viloyatlarida mos ravishda 2014 va 2013-yillarda bittadan kasallanish holati aniqlangan.

Magadan viloyatida tahlil qilingan davr mobaynida exinokokkozning 2 ta holati, ya’ni 2014 va 2015-yillarda bittadan holat qayd etilgan.

Primorye va Xabarovsk o‘lkalarida (2015-yil bundan mustasno) exinokokkoz bilan kasallanish holatlari har yili qayd etilgan.

Chukotka avtonom okrugi (ChAO) va Saxa Respublikasi (Yakutiya)da kasallanish darajasi Rossiya bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichlardan sezilarli darajada yuqori bo‘lib, mos ravishda 13,2 va 2,4 baravarni tashkil etgan.

Exinokokkoz bilan zararlanish xavfi yuqori bo‘lgan guruhlarga ovchilar va ularning oila a’zolari, mo‘yna tayyorlovchilar, mo‘ynaga ishlov berish va undan mahsulot tayyorlash bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar, chorvachilik fermalari ishchilari, yaylov chorvachiligi rivojlangan hududlardagi cho‘ponlar, shuningdek, shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarida qishloq xo‘jaligi hayvonlarini saqlovchi shaxslar kiradi.

Aholi yashash joylari bilan bog‘liq (sinantrop) o‘choqlarda invazion materialning asosiy manbai turli maqsadlarda foydalaniladigan uy itlari (chorva haydovchi, ovchi, chana tortuvchi va boshqa itlar), shuningdek, daydi hayvonlar hisoblanadi.

Tabiiy o‘choqlarda esa asosiy manba itsimonlar (Canidae) oilasiga mansub yovvoyi sutemizuvchi hayvonlardir [3, 67-74 b.], [9, 36-40 b.].

Parazit tuxumlari asosiy xo‘jayinning najasi orqali tashqi muhitga ajralib chiqadi. Keyinchalik ushbu tuxumlar turli xil o‘txo‘r va hammaxo‘r sutemizuvchilar, ya’ni parazitning oraliq xo‘jayinlari organizmiga tasodifan tushishi mumkin.

Inson ham zararlangan itsimon hayvonlar bilan yaqin aloqada bo‘lishi yoki parazit tuxumlari bilan ifloslangan meva va sabzavotlarni iste’mol qilishi natijasida tasodifiy oraliq xo‘jayinga aylanishi mumkin [4,178-184 b.], [2, 13-b.].

Ekstensiv chorvachilikning keng tarqalganligi, qarovsiz va cho‘pon itlarining ko‘pligi, uy sharoitida hayvonlarni veterinariya nazoratisiz so‘yish, shuningdek, hayvonlarning tana qoldiqlarini belgilangan sanitariya talablariga muvofiq zararsizlantirmaslik kistoz exinokokkozning endemik hududlarda saqlanib qolishi va tarqalishiga sabab bo‘luvchi eng muhim omillar qatoriga kiradi [10, 119-b.].

Qirg‘izistonda odamlar orasida alveolyar exinokokkoz (AE) bilan kasallanish darajasi oshganini to‘liq isbotlamaydi. Ehtimol, kasallik holatlarini qayd etish tizimi yaxshilangandir. Shunga qaramay, alveolyar exinokokkoz sobiq Sovet Ittifoqi tarkibiga kirgan davlatlarda anchadan beri ma’lum bo‘lgan kasallik hisoblanadi. Rossiyada ushbu kasallik holatlari 1900-yildayoq tashxislangan. Shu sababli, agar odamlar orasida alveolyar exinokokkoz bilan kasallanish darajasi o‘zgarmagan bo‘lsa, ilgari kasallikning juda ko‘p holatlari aniqlanmay qolgan bo‘lishi kerak edi. Biroq bunday holat yuz bergan bo‘lishi ehtimoli past deb hisoblanadi.

Bundan tashqari, Sovet Ittifoqi parchalanishidan keyingi og‘ir iqtisodiy qiyinchiliklar davrida tibbiy xizmatlar faoliyati sezilarli darajada yomonlashgan. Bu esa qayd etilgan kasallik holatlari sonining oshishini diagnostika imkoniyatlari yaxshilangani bilan izohlash ehtimolini yanada kamaytiradi.

Markaziy Yevropaning alveolyar exinokokkoz endemik hisoblangan hududlarida ham ushbu kasallik XIX asrning o‘rtalarida ilk bor tavsiflanganidan buyon qayd etilgan holatlar soni ortib borgan. So‘nggi o‘n yilliklarda kuzatilgan bu o‘sish qisman diagnostika usullarining takomillashishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin [11, 2943-2953-b.].

Xitoylik tadqiqotchilar Qucuo N. va hammualliflar (2020) tomonidan Tibet avtonom hududida o‘tkazilgan ilmiy ish exinokokkozning profilaktikasida aholining bilim, munosabat va amaliy xulq-atvorini baholashga bag‘ishlangan. Tadqiqotda 840 nafar respondent ishtirok etgan. So‘rovnomada exinokokkoz haqidagi umumiy bilimlar, kasallikning yuqish yo‘llari, shaxsiy gigiyena odatlari, itlarni parvarishlash va profilaktik tadbirlarga munosabat kabi ko‘rsatkichlar o‘rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, respondentlarning atigi 8,7 foizi exinokokkozga oid bilimlarni baholovchi savollarning barchasiga to‘g‘ri javob bergan. Bilim darajasi ta’lim ko‘rsatkichi bilan, profilaktik amaliyotlar esa respondentlarning yoshi va kasbiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan.

Mualliflar kasallikka qarshi kurashda sanitariya-ma’rifiy tadbirlar, shaxsiy gigiyena ko‘nikmalarini shakllantirish va hududiy xususiyatlarni hisobga olish muhimligini ta’kidlaganlar [7, 483-b.].

Tadqiqot metodlari

Andijon viloyati Buloqboshi tumani MTT yoshidagi bolalardan Tadqiqot vazifalarini hal etish va maqsadga erishish uchun ishda Sanitar-gigiyenik, statistik va anketa-so‘rovnoma usulari qo‘llanildi. Anketa-so‘rovnomada 95 nafar (47,5 %) o‘g‘il bolalar va 105 nafar (52.5 %) qiz bolalar ishtirok etdi. Yoshlar bo‘yicha 3 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan shaxslar tashkil etadi.

So‘rovnoma asosan hovlilarda yashaydigan, mol va qo‘ychilik bilan shug‘ullanuvchi o‘z hovlilarida dehqonchilik qilib turli sabzavot va ko‘katlar yetishtiradigan aholidan olindi.

Tadqiqotlar davomida olingan ma’lumotlarga statistik ishlov berishning o‘rnatilgan funksiyalaridan foydalangan holda Microsoft Office Excel dasturlar majmuasi yordamida ishlov berildi.

Tadqiqot natijalari

Turli kasalliklarning oldini olishda aholining ushbu kasalliklar, ularning kelib chiqish sabablari, yuqish yo‘llari va profilaktika choralari haqidagi bilim va xabardorlik darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu holat exinokokkoz kasalliklari profilaktikasida ham alohida o‘rin tutadi. Shuning uchun biz 200 nafar hovlilarda mol va qo‘ychilik bilan shug‘ullanuvchi o‘z hovlilarida dehqonchilik qilib turli sabzavot va ko‘katlar yetishtiradigan aholidan exinokokkoz kasalligi, uning yuqish yo‘llari va oldini olish chora tadbirlari haqida bilim darajasini baholash maqsadida so‘rovnoma o‘tkazdik.


Exinokokkoz kasalligi haqida ma’lumotlar bo‘yicha tuzilgan savollarga quyidagicha javoblar olindi:

Savol: Exinokokkoz kasalligi to‘g‘risida, bilasizmi?(1-rasm) Exinokokkoz kasalligi to‘g‘risida o‘quvchilarning xabardorlik darajasini baholash uchun 200 nafar o‘quvchi ishtirokidagi so‘rovnoma asosida namunaviy taqsimot hisoblandi. Unga ko‘ra, 114 nafar (57%) o‘quvchi «bilmayman», 72 nafari (36%) «ha, qisman bilaman», 7 nafari (3,5%) «ha, to‘liq bilaman», 5 nafari (2,5%) «uydagilar bilishadi», 2 nafari (1%) esa boshqa javob variantlarini tanlashgan.

Ushbu namunaviy taqsimot o‘quvchilarning aksariyatida exinokokkoz kasalligi haqidagi bilimlar yetarli bo‘lmasligi mumkinligini ko‘rsatadi, ha, qisman bilaman” deb, javob berganlarning yaqinlari, qo‘shnilari ushbu kasallik bilan kasallangan, shuning uchun ular bilishlarini ta’kidlashdi.

1-rasm.

Aholini exinokokkoz kasalligi to‘g‘risida bilish darajasi. “Siz exinokokkoz haqida bilasizmi?” anketa so‘rovnomasining natijasi.




Savol: Exinokokkoz qaysi turdagi kasalliklarga kiradi? (2-rasm),

Ushbu savolga 115 nafar (57,5%) bolalar «bilmayman», 14 nafari (7%) «ichki kasallik», 11 nafari (5,5%) «nafas yo‘llari kasalligi», 6 nafari (3%) «qon kasalligi», 8 nafari (4%) «teri kasalligi», 36 nafari (18%) «parazitar kasallik», 8 nafari (4%) «hayvonlar kasalligi», 2 nafari (1%) esa boshqa javoblarni tanlagan.

Exinokokkozning parazitar kasallik ekanligini to‘g‘ri ko‘rsatgan bolalar ulushi 18 foizni tashkil etadi.

2-rasm.

Aholini exinokokkoz kasalligi qo‘zg‘atuvchisi to‘g‘risida bilish darajasi. “exinokokkoz qaysi turdagi kasalliklarga kiradi?” anketa so‘rovnomasining natijasi.



Exinokokkoz kasalligining yuqish yo‘llari to‘g‘risida o‘quvchilarning bilim darajasini baholash uchun Exinokokkoz kasalligining belgilarini bilasizmi? Unga ko‘ra, 82 nafar (41%) o‘quvchi «bilmayman», 5 nafari (2,5%) «havodan», 12 nafari (6%) «meva va sabzavotlardan», 1 nafari (0,5%) «qovun, tarvuz va qovoqdan», 44 nafari (22%) «ifloslangan ko‘k piyoz, shivit va turli ko‘katlardan», 34 nafari (17%) «yaxshi pishirilmagan mol va qo‘y go‘shtidan», 21 nafari (10,5%) «kasallangan it va mushuk bilan muloqotda bo‘lganda», 1 nafari (0,5%) esa boshqa javob variantini tanlagan.

3- rasm.

Aholini exinokokkoz kasalligining yuqish yo‘llari to‘g‘risida bilish darajasi. “exinokokkoz kasalligi nimalardan yuqadi?” anketa so‘rovnomasining natijasi

T/r	Javob variantlari	O‘quvchilar soni	Foiz
1	Bilmayman	82	41%
2	Havodan	5	2,5%
3	Meva va sabzavotlardan	12	6%
4	Qovun, tarvuz va qovoqdan	1	0,5%
5	Ifloslangan ko‘k piyoz, shivit va turli ko‘katlardan	44	22%
6	Yaxshi pishirilmagan mol va qo‘y go‘shtidan	34	17%
7	Kasallangan it, mushuk bilan muloqotda bo‘lganda	21	10,5%
8	Boshqa javoblar	1	0,5%
9	Jami	200	100%

Exinokokkoz kasalligining yuqishida itlarning ahamiyati? ushbu savolga 80 nafar (40%) o‘quvchi «bilmayman», 28 nafari (14%) «itlarning ahamiyati yo‘q», 45 nafari (22,5%) «itlardan yuqishi mumkin», 13 nafari (6,5%) «it tishlaganda yuqadi», 9 nafari (4,5%) «it bilan o‘ynaganda yuqadi», 22 nafari (11%) «it najasi bilan ifloslangan qo‘l, suv yoki oziq-ovqat orqali yuqadi», 3 nafari (1,5%) esa boshqa javob variantlarini tanlagan.

Exinokokkozning yuqishida itlarning epidemiologik ahamiyatini to‘liq tushunmaslik holatlari ustunlik qiladi.

Savol: Exinokokkoz kasalligiga tashxis qo‘yish uchun qanday tekshiruvlardan o‘tish kerakligini bilasizmi?

Ushbu savolga 10 nafar (5%) o‘quvchi «ha, to‘liq bilaman», 48 nafari (24%) «qisman ma’lumotga egaman», 132 nafari (66%) «umuman bilmayman», 10 nafari (5%) esa «uydagilar bilishadi» javobini tanlagan.

Javoblardan ko‘rinib turibdiki aholi Exinokokkoz kasalligining yuqish yo‘llari va omillari to‘g‘risida kam ma’lumotlarga ega. Kasallikning tashxisotiga tegishli savollarga qoniqarli javob olinmagan.

Exinokokkoz kasalligining profilaktikasi to‘g‘risidagi savollar: Siz uy hayvonlari va boshqa hayvonlar bilan kontaktda bo‘lasizmi? Ushbu savolga quyidagicha javoblar olindi, 62 nafar (31%) bolalar «ha, tez-tez kontaktda bo‘laman», 47 nafari (23,5%) «ha, ba’zan kontaktda bo‘laman», 28 nafari (14%) «kamdan-kam kontaktda bo‘laman», 63 nafari (31,5%) esa «yo‘q, umuman kontaktda bo‘lmayman» javobini tanlagan.

Exinokokkoz kasalligi yuqmasligi uchun qo‘l yuvish qoidalariga amal qilasizmi? ushbu savolga 73 nafar (36,5%) bolalar «ha, to‘liq amal qilaman», 117 nafari (58,5%) «ha, qisman amal qilaman», 8 nafari (4%) «yo‘q, amal qilmayman», 2 nafari (1%) esa boshqa javoblarni tanlagan.

Uyda ishlatiladigan ko‘k piyoz, shivit va turli ko‘katlarni yuvish qoidalariga amal qilasizmi? shbu savolga 52 nafar (26%) o‘quvchi «ha, to‘liq amal qilaman», 115 nafari (57,5%) «ha, qisman amal qilaman», 29 nafari (14,5%) «yo‘q, amal qilmayman», 4 nafari (2%) esa boshqa javob variantlarini tanlagan.

Muhokama

Exinokokkoz kasalligining oldini olishda aholining kasallik haqidagi xabardorlik darajasi, yuqish yo‘llari to‘g‘risidagi bilimlari va kundalik sanitariya-gigiyenik odatlari muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, chorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi oilalarda uy hayvonlari bilan muntazam aloqa qilish, tuproq bilan ishlash hamda xom sabzavot va ko‘katlarni iste’mol qilish bilan bog‘liq gigiyenik sharoitlarni baholash zarur.

Dastlabki savolga berilgan javoblar taqsimotida respondentlarning 57 foizi exinokokkoz kasalligi haqida umuman ma’lumotga ega emasligi, 36 foizi qisman xabardorligi, atigi 3,5 foizi esa kasallik haqida to‘liq bilimga ega ekanligini bildirgan. Bu ko‘rsatkichlar aholining exinokokkoz to‘g‘risidagi umumiy bilim darajasi yetarli emasligi ehtimolini ko‘rsatadi. Kasallikning biologik mohiyatini aniqlashga qaratilgan savolda esa respondentlarning 57,5 foizi javobni bilmasligini bildirgan, faqat 18 foizi exinokokkozni parazitar kasallik sifatida to‘g‘ri ko‘rsatgan. Mazkur ikki savolning natijalarini qiyoslash kasallik nomidan xabardor bo‘lish uning kelib chiqishi va biologik xususiyatlarini to‘g‘ri tushunishni anglatmasligini ko‘rsatadi.

Kasallikning yuqish yo‘llari haqidagi bilimlarni baholashda ham shunga o‘xshash holat kuzatiladi. Respondentlarning 41 foizi exinokokkoz qanday yuqishini bilmasligini, 22 foizi ifloslangan ko‘katlar, 17 foizi yaxshi pishirilmagan mol va qo‘y go‘shti, 10,5 foizi esa kasallangan it va mushuklar bilan muloqot orqali yuqishi mumkinligini bildirgan. Ushbu javoblarning ayrimlari exinokokkozning haqiqiy yuqish mexanizmi haqida noto‘g‘ri tushunchalar mavjud bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Yaxshi pishirilmagan mol yoki qo‘y go‘shtini iste’mol qilish esa kistoz exinokokkozning odamlarga bevosita yuqishiga xos yo‘l hisoblanmaydi. Shu sababli aholiga kasallikning yuqish mexanizmini ilmiy asoslangan va sodda shaklda tushuntirish muhimdir.

Exinokokkozning epidemiologiyasida itlarning tutgan o‘rnini baholashga qaratilgan savolda respondentlarning 40 foizi itlarning kasallik yuqishidagi ahamiyatini bilmasligini, 14 foizi esa itlarning hech qanday ahamiyati yo‘q deb hisoblashini bildirgan. Respondentlarning 22,5 foizi kasallik itlardan yuqishi mumkinligini qayd etgan bo‘lsa-da, faqat 11 foizi it najasi bilan ifloslangan qo‘l, suv yoki oziq-ovqat orqali zararlanish mexanizmini aniq ko‘rsatgan. Bu holat itlarning exinokokkoz qo‘zg‘atuvchisi hayot siklidagi asosiy xo‘jayin sifatidagi epidemiologik ahamiyati to‘g‘risidagi tushunchalarni shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi. Shuningdek, it tishlashi yoki hayvon bilan oddiy muloqotning o‘zi emas, balki parazit tuxumlarini tasodifan yutish zararlanishning asosiy mexanizmi ekanligini aholiga tushuntirish lozim.

Exinokokkoz kasalligini aniqlash usullari haqidagi savolga berilgan javoblarda respondentlarning 66 foizi diagnostik tekshiruvlar haqida umuman ma’lumotga ega emasligini bildirgan. Qisman xabardor bo‘lganlar 24 foizni, to‘liq ma’lumotga ega ekanligini bildirganlar esa 5 foizni tashkil etgan. Ushbu ko‘rsatkichlar kasallikni o‘z vaqtida aniqlash va zarur hollarda tibbiyot muassasalariga murojaat qilish bo‘yicha bilimlarni oshirish zarurligini ko‘rsatadi. Exinokokkoz ayrim hollarda uzoq vaqt yaqqol klinik belgilarsiz kechishi mumkinligi sababli, kasallikka shubha tug‘ilganda shifokor ko‘rsatmasi asosida ultratovush tekshiruvi, zaruratga qarab boshqa tasviriy diagnostika va serologik tekshiruvlardan foydalanish muhim hisoblanadi.

Uy hayvonlari va boshqa hayvonlar bilan aloqa qilishga oid javoblar taqsimoti respondentlarning 31 foizi hayvonlar bilan tez-tez, 23,5 foizi ba’zan, 14 foizi esa kamdan-kam muloqotda bo‘lishini ko‘rsatadi. Umuman hayvonlar bilan kontaktda bo‘lmasligini bildirganlar 31,5 foizni tashkil etgan. Shunday qilib, namunaviy taqsimotda respondentlarning 68,5 foizi hayvonlar bilan turli darajada aloqada bo‘ladigan guruhga kiradi. Biroq hayvonlar bilan muloqotning o‘zi exinokokkoz bilan zararlanishni anglatmaydi. Epidemiologik xavf hayvonlarning zararlanganlik holati, parazit tuxumlari bilan tashqi muhitning ifloslanishi va shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilinishi kabi omillar bilan bog‘liq. Shu bois oilalarda itlarni veterinariya nazoratida saqlash, ularni o‘z vaqtida degelmintizatsiya qilish va bolalarning hayvon najasi bilan ifloslangan muhitda o‘ynashining oldini olish muhim profilaktik yo‘nalishlar hisoblanadi.

Shaxsiy gigiyena ko‘nikmalarini baholashga qaratilgan savollarda ham e’tiborga molik holatlar kuzatiladi. Jumladan, qo‘l yuvish qoidalariga to‘liq amal qilishni bildirganlar 36,5 foizni, qisman amal qiluvchilar 58,5 foizni, umuman rioya qilmaydiganlar esa 4 foizni tashkil etgan. Ko‘katlarni yuvish qoidalariga to‘liq amal qiluvchilar ulushi 26 foiz, qisman amal qiluvchilar 57,5 foiz, amal qilmaydiganlar esa 14,5 foiz bo‘lgan. Ushbu ikki ko‘rsatkichni qiyoslash kundalik gigiyenik qoidalarga izchil rioya qilish masalasida muayyan kamchiliklar mavjud bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Ayniqsa, qo‘l yuvish va ko‘katlarni tozalash qoidalariga faqat qisman amal qiluvchilar ulushining yuqoriligi sanitariya-gigiyenik bilimlarni amaliy ko‘nikmalarga aylantirish zarurligini ko‘rsatadi. Exinokokkoz profilaktikasida qo‘llarni sovunlab yuvish, iste’mol qilinadigan meva-sabzavot va ko‘katlarni oqar suvda yaxshilab tozalash, oziq-ovqat mahsulotlarini hayvon najasi bilan ifloslanishdan himoya qilish alohida ahamiyatga ega. Mazkur tadbirlar nafaqat exinokokkoz, balki fekal-oral mexanizm orqali yuqadigan boshqa parazitar va ichak infeksiyalarining oldini olishda ham muhim hisoblanadi.

Yuqoridagilarni xulosa qilgan holdi quyidagi amaliy tavsiyalar berildi:

1. Bolalarni shaxsiy gigiyenaga rioya qilishga targ‘ib qilish. Hayvonlar bilan muloqotdan, tuproq bilan

o‘ynagandan keyin va ovqatlanishdan oldin qo‘llarni sovunlab yuvish ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha tavsiyalar berish.

2. Itlarni veterinariya nazoratiga olish. Xonadonlarda saqlanadigan itlarni veterinariya mutaxassisi tavsiyasiga muvofiq muntazam degelmintizatsiya qilish va qarovsiz itlar bilan aloqani cheklash.

3. Oziq-ovqat gigiyenasini o‘rgatish. Bolalarda meva, sabzavot va ko‘katlarni yuvmasdan iste’mol qilmaslik odatini shakllantirish hamda tarbiyachilar nazoratida ularni to‘g‘ri yuvish bo‘yicha ko‘rgazmali mashg‘ulotlar o‘tkazish.

4. Bog‘cha hududidagi qum maydonchalarini hayvonlar kirishidan himoyalash, bolalarga o‘yin vaqtida iflos qo‘llarini og‘ziga solmaslik va yerdagi buyumlarni og‘izga olmaslikni o‘rgatish.

5. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda exinokokkoz kasalligining kelib chiqish sabablari, yuqish yo‘llari va oldini olish choralarini rasmlar, multfilmlar hamda didaktik o‘yinlar orqali tushuntirish bo‘yicha chora tadbirlar ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdiyev T.A., Suvonqulov U.T., Salimov B.S., Vahobov T.A., Arziyev X.Y. Научные основы профилактики эхинококкоза [Exinokokkoz profilaktikasining ilmiy asoslari] // Проблемы биологии и медицины. – 2016. – № 4(91). – С. 198–202.

2. Ahmed F., Cappai M.G., Morrone S., Cavallo L., Berlinguer F., Dessì G., et al. Raw meat based diet (RMBD) for household pets as potential door opener to parasitic load of domestic and urban environment revival of understated zoonotic hazards? // One Health. – 2021. – P. 13.

3. Доронин-Доргелинский Е.А., Сивкова Т.Н. Организация профилактики и борьбы с цистным эхинококкозом на территории Российской Федерации // Вестник Воронежского аграрного университета. – 2017. – № 3. – С. 67–74.

4. Kinkar L., Laurimäe T., Acosta-Jamett G., Andresiuk V., Balkaya I., Casulli A., et al. Distinguishing Echinococcus granulosus sensu stricto genotypes G1 and G3 with confidence: a practical guide // Infectious Genetics and Evolution. – 2018. – Vol. 64. – P. 178–184.

5. Лысенко А.Я., Владимова М.Г., Кондрашин А.В., Майори Дж. Клиническая паразитология: Руководство. – Женева: 803, 2002. – 752 с.

6. О заболеваемости эхинококкозом и альвеококкозом в Российской Федерации: Письмо Роспотребнадзора от 20.06.2016 г. № 01/7782-16-27.

7. Qucuo N., Wu G., He R., Quzhen D., Zhuoga C., Deji S., Zhang L., Zhao Z., Du Z. Knowledge, attitudes and practices regarding echinococcosis in Xizang Autonomous Region, China // BMC Public Health. – 2020. – Vol. 20. – Article 483.

8. Rasulov Sh.M., Toshpolatov A.Y. Exinokokkoz va uning profilaktikasi. – 2025. – 120 b.

9. Тришин М.В., Корнеев А.Г., Соловых В.В., Верещагин Н.Н., Паньков А.С., Боженова И.В., Самойлов М.И. Эхинококкоз. Комплексная эпизоотолого-эпидемиологическая проблема // Здоровье населения и среда обитания. – 2018. – № 1(298). – С. 36–40.

10. Varcasia A., Dessì G., Lattanzio S., Marongiu D., Cuccuru C., Carta S., et al. Cystic echinococcosis in the endemic island of Sardinia (Italy): has something changed? // Parasitology Research. – 2020. – Vol. 119.

11. Vuitton D.A., Qian W., Hong-Xia Z., Raoul F., Knapp J., Bresson-Hadni S., et al. A historical view of alveolar echinococcosis, 160 years after the discovery of the first case in humans: part 1. What have we learnt on the distribution of the disease and on its parasitic agent? // Chinese Medical Journal (English). – 2011. – Vol. 124. – P. 2943–2953